

Madaniyat – jamiyat poydevori

Yuldasheva Dilafruz Abdumalikovna,

FarDU, San’atshunoslik fakulteti,

Musiqiy ta’lim va madaniyat

kafedrası o’qituvchisi

Umaraliyev Jamshidbek (talaba).

Annotatsiya: Mazkur maqolada madaniyat va san’at sohasining tarixi, uning jamiyatdagi ahamiyati, mamlaratimizda ushbu sohaga berilayotgan e’tibor hamda ushbu sohada xorij tajribasi haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: Madaniyat, ma’naviyat, urf-odatlar, qadriyatlar, axloq.

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o’zining yuksak ma’naviyati va madaniyati bilan kuchlidir[1]

Madaniyat deganda individual va jamoaviy amaliyotga rahbarlik qilish uchun avloddan avlodga o’tadigan ijtimoiy guruhning moddiy va ma’naviy boyliklari tushuniladi. Unga til, jarayonlar, turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar, naqshlar, vositalar va bilimlar kiradi[2].

O’rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Farobiy fikricha, har bir inson o’z tabiatiga ko’ra, “oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi”, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta’kidlashicha, “madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo’ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma tengdir, kishilar o’rtasida farq bo’lmaydi, har kim o’zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug’ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod yashaydilar”[3].

Yevropada “madaniyat” tushunchasi dastlab insonning tabiatga ko’rsatadigan maqsadga muvofiq ta’siri, shuningdek, insonga ta’lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. cultura so’zidan olingan bo’lib, yerni ishlash, parvarishlash;). Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki



ularga rioya qilish istagini rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga olgan. Ellinlar “madaniyatsiz” varvarlardan o‘zlarining asosiy farqini “payday”, ya’ni “tarbiyalanganlik”da deb bilganlar[4]. Qadimgi Rimning so‘nggi davrlarida “madaniyat” tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o‘rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi. Madaniyatning me‘yoriy rivojlanishi uni asrab kelgusi avlodga meros qilib qoldirishni bildiradi.

Har qanday jamiyat ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi, bor bilim olami bo‘lib, u insonni qayerda yashashini belgilashga yordam beradi. Madaniy qadriyatlar inson uchun o‘ta shaxsiy mohiyat va mazmun kasb etib, inson u orqali boshqa kishilar bilan, butun jamiyat bilan munosabatga o‘tadi. Qadriyatlar jamiyatga manzur bo‘luvchi axloq va shakillarni yaratishda va anglashda insonga yordam beradi. Taxsinga loyiq joyi shundaki, insonda boshqalarga nisbatan munozarali emas, balki muloyim munosabat shakillanadi. Jamiyat, avvalo tarixning muayyan bir taraqqiyoti bosqichida tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi bo‘lib, rivojlanuvchi kishilar hayotiy faoliyatlarning majmuidir. Shuningdek, jamiyat kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq tipidir.

Ishlab chiqarish munosabatlarining majmui ijtimoiy munosabatlar deyiluvchi jamiyatni, ya’ni tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichidagi jamiyatni vujudga keltiradi. Shaxs bilan jamiyatning o‘zaro munosabatlari turli tarixiy davrlarda turlicha bo‘lib, shaxs madaniyatini belgilaydi va shaxs madaniyati ham o‘z navbatida muayyan bir jamiyat madaniyatida shakillanadi. Har bir jamiyat shaxs madaniyatni kamol toptirishda o‘zining me‘yoriy qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning madaniyat ehtiyojlarini ta’minlaydi[5]. Jamiyat bilan shaxsning o‘zaro munosabati shaxsning erkinligi, uning, huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlaridagi muhim masala hisoblanadi.

Shaxsning komillikka erishuvini ta’minlashda jamiyatdagi mehnat madaniyatni rivojlantirish, kishilarning siyosiy ongini oshirish, axloqiy va estetik nafosatini tarbiyashda madaniyatning tarkibiy qismlari katta vazifani bajaradi. Shaxsni sotsial jihatdan fikrlashiga ko‘ra insonning mehnat madaniyati, munosabat madaniyat, axloq madaniyati, badiiy tafakkur madaniyati, dunyoqarashi ruhning olami haqida gapirish mumkin[6]. Madaniyat ijtimoiy tizim tuzilma sifatida ilmiy bilimlarni, tafakkurni, axloqiy – estetik qadriyatlarni, axloqiy – huquqiy nizomlarni, urf-odat va an’analarni qamrab oladi. Shaxs madaniyatning shakillanishida jamiyat



madaniyatining quyidagi tizimlari ahamiyatlidir: siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e’tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy – huquqiy g’oyalarni majmui bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarning mahsus tizimini tashkil qiladi. Bu madaniyat tarixiy taraqqiyot bosqichlariga jamiyatning ijtimoiy tabaqalari manfaatlari bilan bog‘liq holda vujudga kelib jamiyat siyosiy faoliyatiga uzviy bog‘liq[7].

Mustaqillik eng ulug‘ va eng aziz ne’mat. Ozodlik, hurriyat, erkinlik. Bu oiliy tushunchalarni yurakdan his qilish, anglab yashash – buyuk saodat.

Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita dahldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar tarixiy an’analar, umuminsoniy, ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak.

Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma’rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim. Va nihoyat shu sohalarda ishlayotgan kadrlar masalasi o‘qtuvchilar va shifokorlar madaniy muassasalardagi va boshqa sohalardagi ko‘plab mutaxassislar–chinakam ziyolilardir. Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimiga e’tiborni ko‘paytirish kerak. Chunki ma’naviy boyliklarni aynan shular yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A., O‘zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., T., 1996;
2. Madaniyat.Uz Arxivlandi 2009-01-15 Wayback Machine saytida
3. Xayrullayev M. M., Shorahmedov D.A., Madaniyat va meros. T., 1973 Ma’naviy yuksalish yo‘lida, T.,1998
4. Madaniyatshunoslik maruzalar matni. E.Gulmetov, T.Qobiljonov, Sh.Ernazarov, A.Mevrulov T.2002yil.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent.2000-yil.
6. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. (S.Otamurodov,S.Husanov, J.Rametov) T. 2002 yil
7. Madaniyatshunoslik maruzalar matni. E.Gulmetov, T.Qobiljonov, Sh.Ernazarov, A.Mevrulov T.2002yil
8. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.



9. Yuldasheva, D. (2022). YANGI O ‘ZBEKISTON RIVOJIDA MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIGA KREATIV YONDASHUV. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 293-297.
10. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio‘g‘li, A., & Behzod Asqaralio‘g‘li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
11. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 57-59.
12. Тешабаева, О. Н., & Юлдашева, Д. А. (2022). Ўзбекистонда банк хизматлари бозори бошқаруви ва ривожланишининг хусусиятлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 91-97.
13. Sobirov, B., Yuldasheva, D., Iroda, N., & Laylo, T. (2022, February). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 53-56).
14. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafuz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
15. Abdumalikovna, Y. D., & Adiljonovna, A. M. (2022). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF FOREIGN EXPERIENCE IN THE FIELD OF CULTURE AND ART EDUCATION IN OUR COUNTRY. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(8).
16. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
17. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
18. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.



19. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33
20. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
21. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
22. Sadixanov A. TALABALAR KREATIVLIK JIHATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI *Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2-iyun 2023-yil* 633-637
23. Sadixanov A. ПОНЯТИЕ ЛИЧНОСТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И КРЕАТИВНОСТИ УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ "USA" *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE*
24. Sadixanov A. MUSIQIY TA’LIMDA KOMPETATSION YONDASHUV. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 572-577.
25. Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In *Archive of Conferences* (pp. 57-60).
26. Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2410-2413.
27. Ergashev, A. (2022). MUSIC EDUCATION IN FOREIGN COUNTRIES. *Science and Innovation*, 1(7), 262-265.
28. Tursinovich, A. K., & Abdullayevich, A. E. (2022, June). MILLIY-AN’ANAVIY MUSIQIY CHOLG‘U SOZLARINING TASNIFI. In *Archive of Conferences* (pp. 245-248).
29. Нажметдинова М.М. У.Рахмонов А.Эргашев The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People *Journal of Pedagogical Inventions and*

- Practices <https://zienjournals.com> ISSN NO:2770-2367 Date of Publication:22-11-2021 A Bi-Monthly,Peer Reviewed International Journal Volume 2 47-49
- 30.Нажметдинова М.М S.Mannopov, I.Nazarova, Sh.Ataboyeva, J.Мо‘yudinov
Analysis of research on aesthetic features of uzbek folk music *Turkish online journal of qualittive Inquiru (TOJQI)*Volume 12,ISSue 10 Oktober 2021:3528-3533
- 31.Қамбаров А.А., Нажметдинова М.М. Ёшларнинг баркамол бўлиб шаклланишларида ижтимоий сиёсат. *ҚарДУ хабарлари*. 2022. 4/2. (54)
32. Xusanovna, D. N. (2023, April). BOLALAR FALSAFASI VA UNING SHAXS RIVOJIDAGI O‘RNI. In *E Conference Zone* (pp. 73-78).
- 33.Djalalova, N. (2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O‘RNI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(4), 7-10.
- 34.Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. “*JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*”. *JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.*
35. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

Research Science and Innovation House